

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TALAFFUZ
KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISHDA TURLI METOD VA
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Ahmadova Gullola

Andijon Davlat Universitet, Pedagogika instituti

Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

(boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz me'yorlarini shakllantirish metodikasining metodologik va ilmiy asoslari va ularning o'ziga xos xususiyatlari

Metod yunoncha *“metodos”* so'zidan olingan bo'lib, *“bilish va tadqiqot yo'li”*, *“nazariya”*, *“ta'limot”* kabi tushunchalarni ifodalaydi.¹ Metodika (yun. *“methodike”*) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig'indisi, umumlashmasi yoki o'qitish usullari haqidagi ta'limot²-- ta'lim berish metodlari, yo'llari va vositalari haqidagi fandır.³

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta'limot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarni kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to'plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlar, metodlar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi.

O'rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalar fan metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo'lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qo'llaniladigan yo'l-yo'riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan. Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shishdi. F. Bekon,

G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar metodlar haqida maxsus

¹ O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.—T.:“O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2003-yil.—5-jild,613-bet.

² O'zbek tilining izohli lug'ati.—T.:O'ME” Davlat ilmiy nashriyoti 2006.—2-jild 582-bet.

³ BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ONA TILINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH. <http://elibrary.ru/item.asp?id=42635702>

asarlar ham yozishdi.

Hozirgi zamon fanlarida ko‘plab umumiy, xususiy, ilmiy metodlar qo‘llaniladi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Zamonaviy ilmiy metodlar tadqiqotchilarga dunyo sir-asrorlarini ochishda yordam bermoqda.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi fani quyidagi **bo‘limlarni** o‘z ichiga oladi:

1. **Savod o‘rgatish metodikasi**, ya‘ni elementar o‘qish va yozishga o‘rgatish.

2. **O‘qish metodikasi**. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish predmetining vazifasi bolalarni tez (me‘yorida), to‘g‘ri, ongli va ifodali, aniq o‘qish malakalarini tarkib toptirish.

3. **Grammatika, fonetika, imlo va so‘z yasalishini o‘rganish metodikasi**. Bu bo‘lim elementar to‘g‘ri yozuvga va husnixatga o‘rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang‘ich imlo malakalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

4. **Nutq o‘stirish metodikasi**. Bu bo‘lim boshlang‘ich sinflarda alohida o‘rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o‘quv predmeti sifatida o‘rganadilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o‘ylab, rejali, mantiqiy nutq tuzish zarurligini anglaydilar.⁴

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuz me‘yorlarini shakllantirish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari shundayki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuz me‘yorlarini shakllantirish metodikasi metodologik asosi borliq va tabiatni **bilish nazariyasidir**.⁵ Bu fanning bosh vazifasi o‘quvchilarning o‘zbek tili lug‘at boyligini mukammal o‘zlashtirib olishlari va undagi so‘zlarni to‘g‘ri, aniq va to‘liq talaffuz qilishlarini ta‘minlashdir.⁶

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining talaffuz me‘yorlarini shakllantirish metodikasi psixologiya va pedagogika ma‘lumotlariga ham tayanadi. Metodikaning masalalarini hal etishda pedagogik ilmlar ham yordam beradi. Metodika psixologiya fani ma‘lumotlariga tayanib o‘qitishda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib yondashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.⁷ Bola nutqni o‘z vaqtida hamda to‘laqonli egallashi kerak. Bu unda psixika paydo bo‘lishi hamda uni keyinchalik to‘g‘ri rivojlantirishning muhim va birlamchi omili sanaladi.

Dastlabki (**ilk yosh** – 3 yoshgacha) bosqichda bola nutqini rivojlantirishga e‘tiborsizlik qilib bo‘lmaydi, chunki bu davrda bola miyasi jadal sur‘atda o‘sib,

⁴ Ibragimova F., Farsaxonova D., Shukurova X., Mamayusupova S., Xolsaidov F., Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. "Innovatsiya-Ziyo", 2021, 13-bet

⁵ Сравнительная типология английского и русского языков. <http://elibrary.ru/item.asp?id=15211454>

⁶ Ona tili o‘qitish metodikasi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlashda muhim omil sifatida. <http://elibrary.ru/item.asp?id=41215410>

⁷ Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, sharofat Yo‘ldosheva, sharofjon Sariev <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-339228-1.html>

rivojlanib boradi va uning vazifalari shakllanadi⁸. «Nutq uchun rivojlanishning bunday «hal qiluvchi» davri bola hayotining dastlabki uch yili hisoblanadi: bu muddatga kelib miya nutqiy sohalarining anatomik oʻsib yetilishi asosan nihoyasiga yetadi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini oʻzlashtirib oladi, katta soʻz zaxirasi shakllanadi. Agarda dastlabki uch yilda kichkintoy nutqiga yetarlicha eʼtibor berilmagan boʻlsa, bu holda kelgusida uning oʻrnini toʻldirish uchun juda koʻp mehnat qilishga toʻgʻri keladi»⁹.

Bola intellektining rivojlanishi bilan bir vaqtda uning emotsional-iroda sohasi ham takomillashib boradi.¹⁰ Bularning barchasi eshitganlarini qabul qilish, tinglaganlarini tushuna borish jarayoni orqali amalga oshadi.

Bir yoshdan bola eshitgan, tinglaganlari va koʻrganlari asosida ongli ravishda, yani maʼnosini bilgan holda ayrim soʻzlarni ayta boshlaydi. Bunda koʻrgazmalilik yetakchi metod sanaladi, yaʼni bola muhitidagi eng koʻp muloqot qiladigan, duch keladigan va qoʻllanadigan shaxs, narsa, harakat va holatlarni eshittirib va koʻrsatgan holda kundan kun lugʻat boyligi oshirib boriladi. Ayniqsa, rangli suratlardan foydalanish samarasi katta. Ikki yoshdan bolalar ikki soʻz (ega va kesim yoki toʻldiruvchi va kesim)dan iborat yigʻiq gaplarni tuzib ayta oladi (*dadam keldi, suv ichaman* kabi). Ikki-uch yoshdagi bolada mana shunday konstruksiyali birliklar sonining imkon qadar orttirib borish bilan uning lisoniy koʻnikmalarini rivojlanishiga diqqat qilish lozim. Masalan: “Bu – xoʻroz, xoʻroz qu-qu-qu deydi”. “Bu –doʻppi, doʻppini kiyasan” va hokazo. Bola bu eshitganlarini tushunadi, takrorlab borishi natijasida soʻzlarni eslab qoladi va ular faol lugʻat boyligidan joy oladi.

Demak ilk yosh davrida:

-bolaning tinglab tushunishi va munosabat bildirishi toʻla holda dialogik muloqot asosida kechadi, bu muloqot tashabbuskori mutloq holda kattalar (ona, ota, buvi, buva, aka, opa v.b.) boʻladi;

- kattalarni tinglashi, ular oʻrgatmoqchi, tushuntirmoqchi boʻlgan narsa, soʻzlarga eʼtibor qaratishi uchun bola majburlanmaydi, balki unda bu obyektlarga koʻrgazmalilik (jonli, tabiiy holatini yoki rasmlarini koʻrsatish) asosida qiziqish uygʻotib, eshinishi, tushunishi va javob qaytarishiga erishish lozim;

- bola tinglab, koʻrish orqali oʻrgangan soʻz, birikma va gaplarni davomli tarzda takrorlanishiga erishish uchun vaqti-vaqti bilan bu shaxs, narsa, hodisa va harakat-holatga qayta murojaat etib turish maqsadga muvofiq:

- har qanday katta-kichik muvaffaqiyat ragʻbatlantiriladi (maqtoʻv, suyish bilan), shuningdek, bola unutkan, yodlolmagan, tushunmagan narsalari uchun tanbeh berilmaydi, aksincha, sabr, bosiqlik bilan boshdan tushuntirish, eshittirish, koʻrsatish lozim boʻladi, eng asosiysi, metodikani almashtirish kerak;

⁸Қодинова Ф.Р. Мактабгача та’лимда зamonaviy yondashuvlar. <https://giu.uz/wp-content/uploads/4.1>.

⁹ Колцова М.М. Ребенок учится говорить. Москва: 1973, 5-бет.

¹⁰[http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/87/Nutq% 20ostirish%20nazariy%20asi%20va%20metodikas i.pdf](http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/87/Nutq%20ostirish%20nazariy%20asi%20va%20metodikas%20i.pdf)

-har bir bola o'ziga xos bir dunyo, takrorlanmas yaratiqdir, uni qaysidir bola kabi qilishga, unga o'xshatishga urinmaslik kerak;

-u qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, imkoniyati, qobiliyatiga ko'ra yondashish kerak. Bolaning maktabga qabul qilunguncha bo'lgan davdagi ota-onasi va atrofdagilar bilan nutqiy aloqasi¹¹, maktabgacha ta'lim muassallarida tarbiyachilar tomonidan o'tilgan mashg'ulot jarayonlaridagi psixologik va pedagogik yondashuv keyinchlik bolalarning bilim olishlarida poydevor vazifasini o'tashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz me'yorlarini shakllantirish metodikasi fani psixolingvistika fani bilan ham uzviy bog'liqdir. Nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, nutqni idrok etish va shakllantirish jarayonlarini ularning til tizimi bilan o'zaro bog'lanishi holatida o'rganuvchi fan; psixologiya va lingvistikaning sintezidan paydo bo'lgan. Psixolingvistika inson nutqiy faoliyati modelini va psixofiziologik nutqiy shakllanishini ishlab chiqib, ularni psixologik eksperimentlar yo'li bilan tekshiradi. Tadqiqot manbayi bo'yicha tilshunoslikka yaqin bo'lgan psixolingvistika o'z tekshirish usullari bo'yicha psixologiyaga yaqin turadi. Unda o'zaro bog'lanishli eksperiment, "semantik differensial" kabi va boshqa eksperimental usullar qo'llanadi. Psixolingvistika fanining oldida bir qator amaliy masalalar [ona tili, ayniqsa, xorijiy tilni o'rgatish; maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy tarbiyasi va logopediya masalalari; miyadagi nutqiy markazlar kasalliklari klinikasi; nutqiy ta'sir ko'rsatish muammolari (xususan ommaviy axborot vositalari faoliyatida va targ'ibot ishlarida); sud psixologiyasi va kriminalistika (masalan, kishilarni ularning nutq xususiyatiga qarab tanib olish, aniqlash); mashina tarjimasini hamda nutqiy axborotni EHMga kiritish muammolari va boshqani nazariy jihatdan tushuntirish zarurati tufayli o'tgan asrning 60-yillarida paydo bo'lgan.¹² "Psixolingvistika" termini o'tgan asrning 60-yillari o'rtalarida amerikalik olimlar tomonidan amaliyotga kiritilgan. O'zbekistonda ushbu sohada bir qancha ishlar bajarilgan bo'lsada, haqiqiy ma'nodagi psixolingvistik tadqiqotlar endigina boshlanmoqda.¹³

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz me'yorlarini shakllantirish umumiy pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jumladan ona tili va o'qish savodxonligi ham, faqat bilim berish, ko'nikma va malaka hosil qilish bilan to'xtab qolmay, bolaning tafakkurini o'stirishi va tarbiya qilishi ham muhim. Haqiqatdan ham, ona tili va o'qish savodxonligi kitobini o'qitish jarayonida o'quvchilar dunyoqarashi shakllanib boradi, bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tomondan rivojlanib boradi, xarakterida ma'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga chiqadi. Pedagogika fani bolalarni har tomonlama rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tomondan ishlab beradi. Boshlang'ich sinf

¹¹ ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОГО МИРА УЧИТЕЛЯ КАК ПРИОРИТЕТНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА В СОВРЕМЕННОМ ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ. <http://elibrary.ru/item.asp?id=25418499>

¹² Сравнительная типология английского и русского языков. <http://elibrary.ru/item.asp?id=15211454>

¹³ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

o'quvchilarining talaffuz me'yorlarini shakllantirish metodikasi fani pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tomondan ishlab bergan ma'lumotlariga tayanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz me'yorlarini shakllantirish metodikasi fani pedagogika bilan bog'lash ahamiyatlidir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalari hali tarbiyalanmagan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz me'yorlarini shakllantirish metodikasi fani o'zbek tilining ma'lum qismini ham nazariy jihatdan egallashni ko'zlaydi. K.D. Ushinskiy : “Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsalar o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shuncha ko'p narsa o'rganadiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganida ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir”¹⁴,-- deydi u. Shuning uchun ham *fonetika* va *fonologiya*, *leksikologiya* va *frazologiya*, *so'z yasalishi* va *etimologiya*, *grammatika*, *morfologiya* va *sintaksis*, *stilistika*, shuningdek, *orfoepiya*, *grafika*, *orfografiya* kabi fanlar ona tili metodikasining muhim asosi hisoblanadi.¹⁵

Fonetika (tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, unda nutq tovushlari, ularning hosil bo'lishi, turlari, o'zgarishi, urg'u, bo'g'in, ohang kabilar o'rganiladi. Fonetika grekcha phone so'zidan olingan bo'lib lug'aviy ma'nosi tovush demakdir)¹⁶ va **fonologiya** (s tarjima qilinganda “tovush haqidagi ta'limot” degan ma'noni bildiradi (phone – tovush, logos - ta'limot). Bu bo'limda tovushlarning so'z va morfemalar ma'nolarini farqlashdagi roli bayon qilinadi. Agar fonetika bo'limida tovushlarning fiziologik-akustik xususiyatlari tekshirilsa, fonologiyada, ta'bir joiz bo'lsa, tovushning ijtimoiy mohiyati o'rganiladi)¹⁷ **grafika** (yun. yogargnke, yogarpo — yoza-man, chizaman) (tilshunoslikda) — 1) u yoki bu yozuvning grafemalarni, tinish belgilari, urg'u belgisi va boshqalarni o'z ichiga olgan chizma vositalari yigindisi; fonematik yozuvda grafemalar va fonemalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi; 2) tilshunoslikning harflar va tovushlar (grafe-malar va fonemalar) o'rtasidagi o'zaro munosabagni o'rganuvchi bo'limi) bilan bog'liq holda savod o'rgatish metodikasini ishlashda, elementar o'qish ko'nikmasini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi)¹⁸. Fonetika va grafikaning fonetik tamoyil asosida yoziladigan imlo qoidalarini o'zlashtirishda ham ahamiyati katta. Husnixat metodikasi grafika nazariyasiga tayanadi.¹⁹

¹⁴ Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. –Toshkent: “O'zdamnashr”,1959.—49-bet.

¹⁵ Сравнительная типология английского и русского языков. <http://elibrary.ru/item.asp?id=15211454>

¹⁶ Tursunov U, Muxtorov N, .Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1992 yil.

¹⁷ Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, .Hojiev A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. II qism. Toshkent. «O'qituvchi» nashriyoti. 1980 yil.

¹⁸ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Grafika_\(tilshunoslik\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Grafika_(tilshunoslik))

¹⁹[https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-til_i_va_adabiyot/Ona%20tili%20o'qitish%20metodikasi%20\(K.Qopsim_ova,%20S.Matchonov%20va%20b.\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-til_i_va_adabiyot/Ona%20tili%20o'qitish%20metodikasi%20(K.Qopsim_ova,%20S.Matchonov%20va%20b.).pdf)

[https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/Ona%20tili%20o'qitish%20metodikasi%20\(K.Qopsimova,%20S.Matchonov%20va%20b.\).pd](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/onatili_va_adabiyot/Ona%20tili%20o'qitish%20metodikasi%20(K.Qopsimova,%20S.Matchonov%20va%20b.).pd)

Maktab dasturiga muvofiq, boshlang'ich sinf o'quvchilari fonetik-grafik ko'nikmalar hosil qiladilar: tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlar, jufti bor jarangli va jarangsiz undoshlar, jufti yo`q jarangli va jufti yo`q²⁰ jarangsiz undoshlar; so`zni bo`g`inlarga bo`lish, urg`uli bo`g`inni ajratishni o`rganadilar.

Bolalar maktabga kelgunga qadar ham nutqning tovush qurilishini amaliy jihatdan o`rganadilar, ammo ular maxsus o`qigunlariga qadar so`zni bo`g`inlarga bo`lishni, so`zdagi tovushlarni izchil talaffuz qilishni bilmaydilar. 1-sinf o`quvchilarida so`zni to`g`ri talaffuz qilish, bo`g`inlarga bo`lish, undagi har bir tovushni tartibi bilan ravon talaffuz qilish ko`nikmasini shakllantirish ustida maqsadga muvofiq, ishlash, o`z navbatida, analiz, sintez, taqqoslash, guruhlash kabi aqliy mashqlarni bilib olishga, shuningdek, tovushlarning tabiati, so`z tarkibida bir-biriga ta`siri kabi ayrim elementar bilimlarni o`rganishga yordam beradi..

1- sinfda fonetika va grafikani o`rganishga katta o`rin beriladi, chunki o`quvchilar o`qish va yozish jarayonini shu sinfda o`zlashtiradilar. Bu bilimlar keyingi sinflarda, asosan, mustahkamlanib, takomillashib boradi.

2. Tovushlar va harflar, unli va undosh tovushlarning xususiyatlari bilan tanishtirish.

So`zning tovush tarkibi ustida ishlash savod o`rgatish davridanoq boshlanadi. Bolalar bu davrda talaffuz qilingan yoki eshitilgan so`z tovushlardan tuzilishini bilib oladilar. Ular so`zni tovush tomonidan tahlil qilishga o`rganadilar, ya`ni so`zni bo`g`inlarga bo`lib, so`zdagi tovushlarni navbati bilan aytadilar. Bunda tovush tomondan tahlilni harf tomondan tahlil bilan aralashtirib yubormaslikka ahamiyat qaratiladi. Masalan, qo`l so`zida q, o`, l tovushlari, tindi so`zida t, i, n, d, i tovushlari borligini aytishlari zarur. 1- sinf o`quvchilari quyidagilarni bilib olishlari lozim: tovushni talaffuz qilamiz va eshitamiz; harfni ko`ramiz, o`qiymiz va yozamiz; harf-tovushning yozuvda ifodalanadigan belgisi. O`quvchilar ko`pincha tovush bilan harfni aralashtirib, xatoga yo`l qo`yadilar.²¹

Tovush-nutq jarayonida real talaffuz qilingan, qulog`imiz bilan eshitgan eg kichik va boshqa mayda bo`lakka bo`linmaydigan nutq parchasidir. Biz tovushlarni aytamiz va eshitamiz. Og`zaki nutqning tovush tizimini o`rganadigan tilshunoslik bo`limi fonetika (yunoncha-phone "tovush" degani) deyiladi. Harf-tovushning yozuvdagi shartli belgisidir. Harflarni ko`ramiz, yozamiz, o`qiymiz. Undoshlarni o`rgatishda ham muayyan tartibga²², talabga asoslaniladi. Harf birikmalarini o`rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda, ularning alifbe davrining oxirgi bosqichida o`rganilishi

²⁰ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ <https://znanio.ru/media/raamli-tehnologiyalarni-talim-zharayoniga-tatbi-etishning-ustuvor-vazifalari-2711560>

²¹ РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ТАТБИҚ ЭТИШНИНГ УСТУВОР ВАЗИФАЛАРИ <https://znanio.ru/media/raamli-tehnologiyalarni-talim-zharayoniga-tatbi-etishning-ustuvor-vazifalari-2711560>

²²https://www.journals.uz/wp-content/uploads/2020/07/conf_iyun_17_2020/10.Pedagogi_ka_yonalishi_2.pdf

maqsadga muvofiqdir.

Unli va undosh tovushlar bir-biriga maqsadli qo‘shilib, bo‘g‘inni hosil qiladi.

Bo‘g‘in murakkab tushuncha bo‘lgani uchun boshlang‘ich sinflarda uning qoidasi berilmaydi. Dasturga ko‘ra, o‘quvchilarda so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lish ko‘nikmasini shakllantirish vazifasi talab etiladi. O‘quvchilar so‘zni bo‘g‘inlarga bo‘lishda so‘zda nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bo‘ladi, degan tushunchaga asoslanadilar: mak-tab, Ra’-no, si-ngil kabi so‘zlar misolida juda ko‘p mashqlar bilan mustahhamlashni talab etadi. Bu qoidalar keyingi sinflarda yangi murakkabroq so‘zlar misolida mustahhamlab boriladi.²³

Leksikologiya (tilshunoslikning til lug‘at tarkibi, ya‘ni muayyan bir tilning leksikasini o‘rganuvchi bo‘limi. Leksikologiya har bir so‘zni yolg‘iz holda emas, balki boshqa so‘zlar bilan bog‘liq holda o‘rganadi. O‘quvchilar bir ma‘noli, ko‘p ma‘noli, ma‘nodosh va qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni shu bo‘lim orqali o‘rganadilar.

So‘zning tarkibi (Morfemika-- so‘z tarkibini o‘rganuvchi bo‘limdir. So‘zning tarkibiy qismlari asos va qo‘shimcha hisoblanadi: xabar/dor, ilm/li, ulug‘/la/moq...

Asos – so‘zning asosiy ma‘nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi. U boshqa ma‘noli qismlarga ajralmaydi. M.: bil/im/don so‘zida bil-, bo‘yo/q so‘zida bo‘ya- asosdir.

Qo‘shimcha –mustaqil qo‘llana olmaydigan, asosga qo‘shilib, unga yangi yoki qo‘shimcha ma‘no yuklaydigan, shuningdek, so‘zlarni bog‘lashga xizmat qiladigan qismdir.²⁴ M.: bil/im/don/lik so‘zida -im,-don, -lik qo‘shimchalardir.

O‘zbek tilining lotin grafikasi asosidagi (1995-y. da qabul qilingan) alifbosi bo‘yicha asosiy imlo kridalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-y. 24 avg. qarori b-n qabul qilingan)²⁵ va **punktuatsiya** tinish belgilarining qo‘llanish me‘yorlarini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi.

Muayyan milliy til grafikasi (yozuvi) 2 xil vositadan: harflar (alifbo) va tinish belgilari (punktuatsiya) tizimidan iborat. Punktuatsiya quyidagi 10 ta tinish belgisidan iborat: **vergul, ikki nuqta, ko‘p nuqta, nuqta, nuqtali vergul, so‘roq belgisi, tire, undov belgisi, qavs, qo‘shirnoq.**

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”²⁶ oldiga ham katta ma‘suliyatli vazifalar qo‘yildi. Shunday dolzarb masalalardan biri ona tilini o‘qitishdan asosiy maqsad uning qonunyatlarini o‘rgatishdan iborat emas, balki, mustaqil fikrlaydigan ijodiy fikr mahsulini nutq shakliga mos ravishda og‘zaki va yozma bayon qila olish ko‘nikma va malakalarini egallashdan iborat deb belgilab

²³ . Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b

²⁴ Lutfullayeva D., Davlatova R., Hozirgi o‘zbek adabiy tili (2-qism) “Iqtisod-moliya”—Toshkent, 2018., 7-bet.

²⁵ O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari, T., 1956; O‘zbek tilining imlo lug‘ati, T., 1995.

²⁶ Ona tili o‘qitish metodikasi o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini aniqlashda muhim omil sifatida. <http://elibrary.ru/item.asp?id=41215410>

qo'yildi.²⁷

BIRINCHI BOB BO'YICHA XULOSALAR

1. So'z ustida ishlash, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, boshlang'ich sinf o'quvchilarida notiqlik sifatlarini shakllantirish, lug'aviy birliklarni o'zlashtirish, so'zlarni fikr maqsadiga muvofiq qo'llash madaniyatini egallashlarini, keyinchalik esa umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.²⁸

Jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq til materiallarini o'zlashtirish hayotiy zarurat ekan, nutq o'stirish masalasi ta'limning har bir bosqichi uchun muhim vazifa bo'lib qolaveradi. Jamiyat taraqqiyoti o'quvchilar shaxsiga ta'sir ko'rsatishini hamda yoshlar davr bilan bog'liq ravishda o'sib borishini hisobga olgan holda darslikdagi o'quv matnlari va leksik-semantik topshiriqlarni takomillashtirib borish ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

2. Nutqqa muomala sifatida qo'yiladigan aniqlik, tushunarlilik, obrazlilik, emotsionallik, birinchi navbatda, nutqning leksikasiga bog'liqdir.

3. O'quvchilar nutqini so'zlar bilan boyitish, ularda to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish o'qituvchidan qo'shimcha o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni samarali metod va usullarda amalga oshirishni talab etadi. O'quvchilarning har bir so'zni to'g'ri, to'liq talaffuz qilishlari, adabiy tilni egallashlari va nutqini boyitishda, nutqiy ko'nikmalar, nutqiy kompetensiyalarni egallashlarida 1-sinfdan boshlab berilgan Ona tili va o'qish savodxonligi darslaridagi badiiy adabiyot namunalariga tayanish, matndagi so'zlarning fonetik, leksik, sintaktik, morfologik ma'nosi, ma'nodosh so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, uyadosh so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, poetik so'zlar ustida ishlash, ularning uslubiy vazifasini aniqlashtirish, nutqda qo'llanadigan ehtiyojni yuzaga keltiradigan ta'lim metodlaridan foydalanish bo'yicha o'quvchilarga yo'l-yo'riqlar ishlab chiqilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz me'yorlarini shakllantirish metodikasi oldidagi dolzarb masalalardandir.

²⁷ O'zbekiston Respublikasining „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“-1998

²⁸ Формирование духовного мира учителя как приоритетная педагогическая проблема в современном высшем образовании. <http://elibrary.ru/item.asp?id=25418499>